

URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI
KIMYO -TEXNIKA FAKULTETI
«QURILISH VA ARXITEKTURA» KAFEDRASI

DIPLOM LOYIXASI BO'YICHA

T U S H I N T I R I S H X A T I


Diplom loyixasining mavzusi: *Ko'p qavatli 70 xonadonli turar joy binosini loyihalash*

Bitiruvchi 502 gurux talabasi:




G'affarov Bekzod

Kafedra mudiri:



dots. Raxmonov B.S

Diplom loyixasi raxbari:



o'qit. Bayjanov A..Q.

Maslaxatchilar:

1.Arxitektura qismi



o'qit. Bayjanov A..Q.

2.Konstruktiv qismi




dots.Durdieva G.S.

3. Iqtisodiyot qismi



o'qit. Tojiyev Yu..

4.Qurilish texnologiyasini tashkil qilish qismi



dots. Xadjiev I.M.

5.Mexnat va atrof muxit muxofazasi qismi



dots. Quryazov Q.

Urganch - 2014 yil

Kirish

Ma'lumki, O'zbekistonning tarixiy va yangi shaharlarida me'moriy obidalar qatorida turar joy binolari asosiy qismni tashkil etadi. Ularning kupchiligi, ayniksa, eski shahar xududida qurilish materiallari va konstruksiyalari nukta nazaridan (yupqa sinchli karkas, guvala devorlar, loy tomlar) umri qisqa, uzokka chidamaydi. Shu sababli ko'hna turar joy binolari kun sayin ta'mirla-nishni. ular o'rniga yangicha, chidamli turar joy binolari qad ko'tarilishini taqozo etmoqda.

Misol tariqasida Toshkent shahrining Markaz-27 mikrorayonini olish mumkin. Ko'hna turar joy binolaridan bo'shatilgan yerning bir qismida uch xil tipdagi turar joylar, bolalar bogchalari va yaslilari, umumiy ta'lim va muassasa maktablaridan tashkil topgan bu mikrorayonda mualliflar (G. Korobovtsev, S. Odilov va boshqalar) mahalliy iklim sharoitlari, maishiy va madaniy an'analarni qisman hisobga olganlar. Kup bolali oilalarga kottej tipidagi ikki kavatli-xovlili uylar, kam kishili oilalarga turt va to'qqiz kavatli uylar belgilangan. Savdo va maishiy xizmat muassasalari Beruniy kuchasi buylab joylashgan. Loyihaga muvofik ishlash, yashash, uk,ish va dam olish uchun optimal shart-sharoitlar yaratilgan. Tukviz kavatli yirik panelli turar joy binolarining yon tomonlarini rasmlar bilam bezab, so poddan yasalgan koplama — plitkalarda rangorang buyoqqar. ayniksa, zangori va ok ranglar ishlatilgan.

Davlat turar joylar loyihasining deyarli SO foizi O'zLITTI mutaxassislari tomonidan yaratilib, yirik panellar, yaxlit tsmir-bston bloklar, mahalliy kurilish ashyolaridan, shuningdek, seysmik mintakalar uchun kar- kas-panelli va boshka aralash konstruksiyalardan turli Kavatlil, uzunligi va shakli turlicha bulgan turar joy binolari kad kutardi.

Sh. Rashidov xiyoboni davomida yaxlit keramzit-bstondan kurilgan 16 kavatli turar joy bino mlksalila butum respublika buylab aholiga srlar tared- tildi, ularni uzlaigsirish uchup esa uzok muddaggli bank krs-ditlari tashkil etnddi. Ayrim joylarda bu kurilish yirik turar joy massivlariga qam aylangan. Misol tar i qas id a Toshksitiing Urikzor massivini, Mamanganning Axsiksnt massinimi, Urgugning ksng kulamdagm kurili shlarini aytib Ugosh mumkii. by yerdagi turar joylar qurilishida me'morlik anashu1ariniig l1g ijobiy uslublari kullanihgoma kdlmay, balki yashash uchuy zarur b?lgan eamoiaiviy muhamdislik ishlarn .ham ksmg k?lamda olib borilmokda. Turar joy massivlari tabiiy gaz, issits suv, kanalizatsiya kabi tsdtor tsulayliklar billi tachshnlanmoeda.

O`zbekistan Respublikasm Prezidentining Toshkent shahridagi uy-joy kurilishimi davlat tomomidam tsqllab- kuvvltlashni kuchaytirish tugrisidagi Far moi(1996 yil 31 yanshr) e'lon kilingach, aholi uchun bir kancha MODDIY yordamlar tashkil etildi. Shular qatoriga Toshkent davlat aktsiyadorlik uy-joy jamgarma banki tuzilishi va TOSHKENTliklarga davlat srdamida xususiy ui-joyga ega bulish- lari uchuy 10 yil ichida bulib-bulib tflash sharti bilam imtisizli kreditlar bsrilishi Noh h.k. kiradi.

Me'morlarning kupchiligi turli mintaqalar xususiyatlarini hisobga olib, ayniqsa, ko`hna shaharlarning turar joy qismlari ta'mirlashda maxsus loyihalar bunyod etdilar. Ular jumlasiga Xiva shahrining Ichan qal'a qismi uchum yaratilgan 1-2 qavatli uylarni (memor O. Kobulov), Buxoro sharoitiga moslangam 1-2 qavatli uylar turkumini (me'mor N. Sharipov) va boshqalarni kiritish mumkim.

Shuni e'tirof etish kerakki, me'morlarimiz keyingi yillarda yaratgan kator turar joy binolari foydalanish uchum qulay,SOZ va kurkamligi, badiiy jihatdam xilma- xilligi bilan ilgarigi bir qolipda qurilgan ko`rimsizlikka va bir xil nusxadalikka chek qo`ymoqda.

Loyiha institutlarida, viloyatlardagi arxitektura va shaxarsozlik bosh boshqarmalari qoshidagi memorlar usta xonalarida xilml-xil turar joy loyihalari ishlamoqda

Ayniqsa, O`zLITTI, Tashgiprogorv Toshloyiha va deyarli hamma institutlar maxsus ishlab chiqqan loyihalarda, F. Tursunov, S. Odilov, A. Mahkamov, V. Akopdjanyan va bir kancha yetuk me`morlarning shaxsiy ustaxonalarida bum-sd etilgan kator loyihalarda turar joylarning epyF va ravshan xonalar, keng oshxona va peshayvonlar, isitish ti- zimlari kabi tsulayliklari ularning me`moriy jozibasi bi- lan uzviy borlangan. Toshkentning Shalriston k,ismidagi "G'ulbozor" mahallasida, shimoli-sharkiy kismidagi Xusanboev kuchasida, Samarkand viloyatining Urgut tumanida va boshka viloyatlarda qurilgan kator turar joy binolari yukoridagi fikrimizning dalilidir.

Toshkentning "Gulbozor" mahallasidagi xususiy uylar (ms'mor F. Tursunov. 1996-1999 y.) asosan ikki kavagli bulib, ularning birinchi kavatining deyarli yarmida dukonlar, ustaxonalar kabi tadbirkorlik xonalari, ikkinchi yarmida esa turar joy xonalari joylashgan. Ikkinchi tsavatlarida fakat turar joy xonalari mavjud. Birinchi kavat ^ovpilari va ikkinchi atriumlarida gomlari balandpigida an'anaviy shiypolar joylashtirilganligi iadim sharoitlarimiz hisobga olinganligidan dalolat beradi. husanboev kuchasida- gi kvartalla joylashgan "elit" (saralangan) xususiy uylar esa (me'mor F. Tursunov, 1999-2000 y.) xachkaro andozalar mitsesida loyihalangan; uylarning sath maydoni 220 dan 600 kvadrat mstrgacha bulib, ikkitalan va turttdan birlashti- rilgan va asosan hovli tomonga ochilgan. Podval kismida garaj, sauna, sport xonalari; birinchi devatida - mshmonxo- na zali "kamini" bilan, kirish kismi, ovkatlanish xonasi, oshxona, ui xizmatchisining xonasi, ishxona (kabinet) bulsa, ikkinchi kavatida yotokxonalar (ularning soni uchdan olgita-

gacha) mavjud. Uylarning uchinchi tsavatida ham turli xonalar bor va tomi yassi bulib, foydalanishga muljachlangan. Mehmonxonalarni yanada kattarak, yozgi xona ayvon va peshayvonni qulayrok,. oshxonani milliy taomlar tayyorlashga moslab loyihalash, konstruksiyasini zilzilaga chidamli Kilish, turar joylar atrofini bog-rorlar. kukalamzorlar, arikpar vositasi bilan obodonlashtirish kabi bir kator muammolarni echish me'morlarimiz zimmasidagi eng mas'uliyatli va dolzarb vazifalarlan biridir. Yurtboshimiz I.Karimov tomonidan tariximizning yuksakligi va uni kelgusi avlodlarga o'z xolicha yetkazish borasida shunday so'lar bizga g'urur bag'ishlaydi. Ko'p qavatli va o'ta baland (40 qavatdan yuqori) binolarni loyihalashda qator muammolar vujudga keladi. Bu muammolar to'g'ridan-to'g'ri kompozitsiyada, ekspluatatsiya qilishning qulayligida va qurilishning narxida aks etadi. Shu jumladan, eng ijobiy rejalashtirishning shakliga; mexanik transportni maqsadga muvofiq bo'ylama tashkil etilganligiga (uni balandlik bo'yicha zonalashtirish imkoniyati bilan); inshootning balandligi bilan barobar ortib boruvchi va yuqori shamol kuchlanishi sharoitida binoning turg'unligini ta'minlovchi konstruktiv sistemaning tanlanishiga;avariya sharoitida yoki yong'inda odamlarni, ta'minlanganligiga bog'liq bo'ladi. Ko'p qavatli va o'ta baland binolarning sxemalari rejaning shakliga va bo'ylama kommunikatsiya tugunlarining joylashishiga qarab klassifikatsiyalanishi mumkin.

Kompakt va rejaviy kompozitsiyadagi birmuncha uzayganlik 20-30 qavatgacha bo'lgan binolarda tez-tez uchrab turadi.

20-30 qavatli binolar metall yoki mustahkamlik diafragmasiga ega bo'lgan va kommunikatsiya yadrosiga mos tushadigan monolit stvollar yoki yig'ma temir betonli karkaslarga ega.

Xorijda 30-40 qavatli binolar uchun monolit temir beton stvolli va faqat binoning tashqi perimetri bo'yicha tayanchlarga ega bo'lgan

karkaslar qo'llaniladi. Bunday texnik qavatlar qavatlararo yopmalar va rostverklarni o'zaro bog'lanishi, gorizontlar yuklamaga qarshi stvol va qobiqni birgalikda ishlashi natijasida «stvol-qobiq» konstruksiyalari katta mustahkamlikka ega bo'ladi. Asosiy muammo balandligi 10 qavat va undan ortiq bo'lgan binolarning yong'in xavfsizligidir. Bu muammo tutun kira olmaydigan (tutamaydigan) zinapoya bo'limlari va lift shaxtalari, tutunni kamaytiruvchi maxsus sistemalar, xabar berish, yong'inni o'chirish, yong'in avtomatikasi kabi moslamalar bilan ta'minlanishi orqali echiladi.

16 va undan ko'p qavatli binolarda bo'ylama transportni zonalashtirish maqsadga muvofiq bo'lib, balandliklari bo'yicha liftlarni ikki guruhga – pastki qavatlariga va yuqori qavatlariga xizmat qiluvchi qismlarga ajratiladi (tezkor liftlar). Qavat oralab to'xtatuvchi moslama shaxtalar ustida, lift xollarining pastki zonalarida bo'sh qolishi mumkin bo'lgan joyni qo'shimcha xona uchun foydalanish imkonini bermaydi.

Binoni arxitekturaviy tashqi ko'rinishining shakllanishida – o'tkir siluetli hashamatli qurilmalar, qismlarning turli balandlikka egiladigan, oddiy ko'p qavatli binolar bilan plastik ishlanmali va past hajmli konferents-zallarning qiyoslanishi fasadni bo'ylama yoki enlama elementlar bilan qismlarga ajratish kabilar qo'llaniladi.

O'ta baland binolarning badiiy ahamiyatiga proportsiyalarning salobatlilik, pastki va yuqori qavatlarining plastik ajralib turishi; perspektivada ta'kidlangan bo'ylama kolonna-profillarning yuqoriga intilishi, rejaviy qadamni aniqlovchi impostlar; enlamasiga hajmning ritmik qismlarga ajratilishi; katta va yopiq (gluxoy) va ayni vaqtda bo'ylama kommunikatsiyalarni o'z ichiga oluvchi hajmlarni qiyoslash, bir tipdagi qavatlarining shishali fasadlari ijobiy ta'sir etadi.

Boshqaruv idoralari binolaridagi ishxonalarning (arxitekturaviy) intereri tavsifi (xarakteristikasi) maydonni mebellar, ish jihozlari,

ko`kalamzorlar, ish o`rinlarini guruhlash bilan bo`linish spetsifikasi bilan aniqlanadi: u bir xilda hal etilgan pol, shift tekisligi va funktsional xususiyatlari bilan va plastik boy ish jihozlarining devorlari hamda turli-tuman materiallarni bir - biriga taqqoslash yordamida quriladi.

Mehmonxona binolari odamlarning qisqa vaqt davomida yashashlari va shunga maishiy-madaniy talab asosida xizmat ko`rsatish maqsadlarida quriladi. Bunday inshootlar barcha turdagi zaruriy kommunal qulayliklar (suv, kanalizatsiya, isitish qurilmalari va hakoza) bilan jihozlangan va zamonaviy KMKga asoslangan xizmat ko`rsatish kompleksi bilan ta'minlangan bo`lishi zarur.

Mehmonxonalar shaharlarda, ishchilar yashaydigan posyolkalarda va qishloq joylarda quriladi.

ARXITEKTURA QISMI

Bitiruvchi:

G`affarov B.

Maslaxatchi:

o`qit.Bayjanov A.

Diplom loyixasi raxbari:

o`qit.Bayjanov A.

Ko`p qavatli turarjoy binosi. Turar uy-joylar o`zining har xil xususiyatlariga qarab quyidagilarga bo`linadilar.

a) aholini joylashtirish usuliga qarab uy-joylar 2 guruhga bo`linadi:

1. Xonadonlarga bo`lingan uy joylar, bular oilalarni xonama - xona joylashtirishga mo`ljallangan bo`ladi.

2. Xonalarga bo`lingan turar uy joylar esa oilalarni xonama-xona joylashtirishga mo`ljallangan bo`ladi. Bu uylarda umumiy maishiy xizmat bo`limlari joylashgan.

Bu turar-joylarda yolg`iz ishchilar, talabalar, hunar-texnika bilim yurtlari va maktab - internatlar o`quvchilari yashaydilar. Bundan tashqari mehmonxona va dam olish uylarida esa musofirlar, sayohatchilar va dam

oluvchilar yashaydilar. 2 ta guruhga taalluqli binolar o'zlarining me'moriy tarxiy xususiyatlariga ko'ra bir-biriga o'xshab ketadigan tomonlari borki, bular ularning vazifalari, funktsiyalarining o'xshashligi hamda yashovchilarning talablari bir xilligi bilan ajralib turadi: eng ko'p tarqalgan xonadonli binolar shahar va qishloqlarda aholining asosiy yashash fondini tashkil etadi.

b)erdan foydalanish usuliga qarab xonadonli uylar quyidagilarga bo'linadi.

1. Hovlili turar joy binolarida uy yoki xonadon egasi uy hovlisining ham egasi hisoblanadi, hovlili turar-joylar bir xonali uy xonadon va tutashtirilgan hovlili 2 yoki ko'proq xonadon tutashtirilgan alohida hovliga bo'ladi.

2. Yer sathi umumiy bo'lgan turar joy binolari:

Bu ko'p xonadonli va asosan ko'p qavatli umumiy (ya'ni kommunal) tipdagi shaharlardagi binolardir. Er sathidan xamma xonadonlar yoki bir guruh xonadonlar foydalanadilar. Bu tipdagi uylarga xonama-xona (pokompaktnie) uylar kiradi.

Qavatlar bo'yicha turar joy binolari quyidagilarga bo'linadi:

1. Past qavatli uylar (1-2 qavatli bo'lib) bu uylar asosan qishloq joylarda tarqalgan bo'ladilar. Bunaqa xildagi uylar asosan qishloq joylarda, nafaqat qishloqlarda va balki hozirgi paytda shaharlarda ham o'z ahamiyatini yo'qotgani yo'q, chunki bizning mamlakatimizda va ayniqsa qishloqlarimizda shaharlarimizga qaraganda ko'proq axoli yashaydi.

2. O'rta qavatli uylar (3-5 qavatli bo'lib) umumiy zinapoyadan hamma foydalanadigan liftsiz turar joydan iborat shaharlarda juda ko'p tarqalgan, ular qurilishda iqtisodiy jihat tomonidan foydali deb topilgan. Bundan tashqari bu xildagi uylarni qurish aholini nisbatan zichroq joylashtirish imkoniyatiga ega. Ammo yirik shaharlarda eng asosiy narsa

er sathini iqtisod qilish masalasi bo'lib, aholini zich joylashtirish maqsadida o'rta qavatli uylar qurilishi kamaytirilib, ularning o'rniga ko'p qavatli turar joy binolarini qurish kundan-kunga oshib borayapti. Tabobat mutaxassislarining tekshirishlaridan shu narsa ma'lum bo'ldiki, bizning tabiat va iqlimimiz sharoitida 5 qavatli uylarga zinapoyadan chiqib borish yoshi o'tib qolgan odamlarning sog'ligiga zarar etkazar ekan. Shuning uchun O'zbekiston sharoitida o'rta qavatli liftsiz uylarning balandligi 4-qavatdan oshmasligi kerak.

3. Ko'p qavatli uylar (6-9 qavatli) umumiy foydalaniladigan zinapoyadan tashqari tik vertikal bog'lanishlari uchun liftlar qurilmasi ham bo'lishi kerak. Qurilish iqtisodiyoti nuqtai nazaridan qaralsa, uylar o'rta qavatli uylardan qimmatroqqa tushadi, ammo er sathida ko'proq aholini joylashtirish imkonini beradi. Shuning uchun bu xildagi uylar katta shaharlar uchun asosiy turar joy binolari hisoblanadi.

4. Yuqori qavatli uylar (10 va undan ortiq bo'lgan) binolarning kiraverish qismida, pod'ezdida umumiy zinapoyadan tashqari 2 xil lift bo'lishi kerak, ya'ni aholini va yukni tashiydigan liftlar. Aholini yong'in paytida binodan tez chiqarib yuborish yoki evakuatsiya qilish uchun xonadonlar bilan yozgi xonalar orqali uzviy bog'langan bo'lishi va tikka (vertikal) zinapoyalar yoki dimiqmaydigan zinapoyalar orqali bog'lanish bo'lishi kerak.

O'rtacha, ko'p va yuqori qavatli uylar 3ta eng asosiy tarxiy tuzilmalarga bo'linadi: bo'linmali, yo'lakli, galereyali.

Bizda bo'linmali (seksiya) tuzilmali uylar eng ko'p tarqalgan uylar bo'lib ular ko'p vazifalidir, ya'ni bir uyda ko'p xonadonli va kam xonadonli uy turlarini yaratishda katta imkoniyatga ega.

Bo'linmali seksiya tuzilishiga ega bo'lgan uylar sobiq Sovet Ittifoqi paytida turli iqlim sharoiti mavjud bo'lgan joylarda qurilgan. Yo'lakli va galereya turidagi uylar esa asosan kamxonali

xonadonlarga mo'ljallangan bo'lib, yo'lakli uylar sobiq Ittifoq hududining o'rta qismida, galereyali uylar esa janubiy qismida qurilgan.

O'zbekiston sharoitida turar uy-joylarni loyihalash uchun qo'yiladigan asosiy talablar:

1. O'zbekistonning iqlim sharoitida xonadonni er sathi va ochiq havo bilan bog'lash an'anaga aylanib qolgan. Shaharlarning tez o'sishi va er sathini ehtiyot qilish o'rta va ko'p qavatli uylarning qurilishiga olib keldi.

2. Xonadonlarni er bilan bog'lash an'anasini yo'qoldi. Buning o'rnini almashtirish uchun xonadon tarkibiga har xil yozgi xonalarni loyihalash va uylarda past qavatli uylarga nisbatan har xil qulayliklar, ya'ni markazlashgan issiq suv, isitish elektr jihozlari va axlatni olib ketish uchun qulayliklar yaratildi. Shu sabablar natijasida O'zbekiston tabiati, iqlim-sharoitini va urf-odatlariga javob beradigan ko'p qavatli uylarning xillariga talablar ishlab chiqildi.

3. YOz paytlaridagi issiq havo va nisbatan yumshoq, qisqa davrli qish xonadonlarni issiq havodan saqlashni taqozo etadi. Bu esa uylarni quyoshga nisbatan to'g'ri qaratish (orientatsiya) qilish, yaxshi shamollatish, konstruktsiyalar xususiyatlaridan to'g'ri foydalanish, quyoshga qarshi qurilmalardan foydalanish orqali erishiladi.

4. Uylarni quyoshga nisbatan to'g'ri qaratish (ya'ni orientatsiya) ma'nosi shundaki, qish paytida xonadonlar quyosh nuridan ko'proq foydalanish, yoz paytida esa xonalarga kamroq quyosh nuri tushishini ta'minlashi zarur. Bunga erishish uchun quyosh tikkadan o'tganligi sababli quyoshga qarshi kichkinagina qurilma, ya'ni (kozirek) derazalarni issiq quyosh nuridan saqlaydi. Qishda esa quyosh pastlab nur sochganligi sababli quyosh nuri to'g'ridan-to'g'ri janubga qaratilgan derazaga tushadi va xona "insolyatsiya" bo'ladi. Insolyatsiya ya'ni quyoshni to'g'ridan-to'g'ri tushishi faqat turar uy joylardagi xonalarga

zarur, lekin u yordamchi xonalarga: oshxona, dahliz, hojatxonalarga kerak emas, aksincha ular bu xonalarda noqulayliklar tug'dirishi mumkin. Demak xonadonlarni ikki tarafga qaratish kerak: asosiy xonalar janub tomonga joylashtirilsa, yordamchi xonalar shimol tomonga joylashtirilishi kerak.

Janubiy sharqiy taraf va shimoliy g'arbiy tarafga qaratish, ya'ni xonalarni ikki tarafga joylashtirish mumkin bo'lganligi sababli qurilishda bunday taraflarga qaratishga va loyihalashga ruxsat beriladi.

Eng yomon orentatsiya, - bu g'arb va sharq taraflari bo'lib, bunday uyning bir tomoni peshindan keyin qiziydi. Bunaqa tarafga qaratib turar uy joylarni qurishga ruxsat berilmaydi. Xonada salqin havo hosil qilish uchun uyni shamollatish, elvizak katta ahamiyatga ega.

Elvizak (skovoznyak) hosil qilish yo'li bilan kunduzgi issiq havoni kechki salqin havo bilan almashtirish mumkin. Bunga sabab O'zbekistonning kecha-kunduz davomida tez-tez o'zgarib turuvchi iqlim sharoitidir. Buning uchun kunduz kuni xonalardagi derazalarni yopiq holda va aksincha kecha - kunduz tashqaridagi havodan salqinlashganda derazalarni ochish yo'li bilan xonaning havosi salqinlatib turiladi.

Ammo xonani tez salqinlatish uchun uni shamollatish zarur. Bu hol hosil qilinadigan to'g'ridan-to'g'ri burchakli elvizak hisobiga tashkil qilinadi. Bu esa uy tarxini to'g'ri tashkil qilish, ya'ni uni ikki tarafga qaratish hisobiga tashkil etiladi. O'zbekiston sharoitida xonadonni bir tomonga qaratish elvizak usulini hosil qilishga yordam berolmaydi va xonadonning isib ketishga sabab bo'ladi. Bunday tarxli turar uy-joylar O'zbekiston iqlimi sharoitida qoniqarsiz deb hisoblanadi.

Tashqi konstruktsiyalarning qanchalik issiqlik o'tkazishini bilish uchun, u albatta hisob-kitob qilinib ularning kerakli qalinliklari topiladi. Shu maqsadda issiqlikni kam o'tkazadigan materiallar va derazalar sathi kichraytirilib olinadi.

Salqin havo hosil qilish ayniqsa (quyoshga noto'g'ri qaratilgan uylar uchun) quyoshga qarshi qurilmalar ishlatiladi: gorizontal qurilmalar janubga qaratilgan uylar uchun, vertikal qurilmalar sharq va g'arb tomonga qaratilgan uylar uchun hamda har xil boshqa aralash qurilmalar (markizlar, shtorlar, jalyuzlar, va undan tashqari o'simliklar,) daraxtlar va yopilib o'sadigan o'tlar ishlatiladi. Quyoshga qarshi qurilmalar nafaqat havoni salqinlashtiribgina qolmay uyning chiroyli ko'rinishiga ham yordam beradi. Ular uylarning tarzini (fasadini) boyitishga va shinam bo'lishiga katta yordam beradi. Yuqorida aytib o'tilgan qurilmalar O'zbekiston sharoitida salqin yaratadigan tabiiy jihozlar hisoblanaladi. Shular bilan bir qatorda sun'iy jihozlar sovutgichlar (konditsionerlar) ham havoni salqinlatishga xizmat qiladi. Lekin ularni ishlatish faqat tabiiy havoni salqinlatish usullariga yordamchi bo'lib xizmat qiladi. Shuning uchun O'zbekiston sharoitida sun'iy usullar ishlatiladimi yoki yo'qmi uylarni loyihalashda asosan tabiiy salqinlatish usullari, qonun qoidalari qo'llanilishi shart.

Tabiiy iqlim sharoiti bo'yicha O'zbekiston hududlar zonalarga bo'linadi. Bu umumiy ko'rsatkich, albatta O'zbekiston tog'li, lalmikor, sahro hududlariga bo'linadi va havosi bir-biridan farq qiladi. Farg'ona, Samarqand, Toshkent, Surxondaryo viloyatlari esa tez-tez esib turadigan issiq shamoli bilan boshqa viloyatlardan farq qiladi.

Tash ZNIIEP instituti tomonidan bu erlarning iqlimiy ko'rsatkichlari ishlab chiqilgan bo'lib, O'zbekiston hududi 3 qismga bo'linadi:

1-qismga: sovuqroq va uzoq qishi va salqinroq yozi bilan ajralib turadi. Bunga Qoraqalpog'iston, Xorazm va Buxoro viloyatlarining shimoliy qismi kiradi.

2-qismga: asosiy lalmikor va sanoat viloyatlari, ya'ni Farg'ona vodiysi, Toshkent va Samarqand viloyatlari kiradi. Bu viloyatlar yumshoqroq qishi va issiq yozi bilan ajralib turadi. Bular juda keng

hududli va aholisi zich joylashgan viloyatlardir.

3-qismga: yozi juda issiq, qishi qisqa va yumshoqroq iqlimli viloyatlar kiradi. Bu erda tez-tez janubiy issiq shamol esib turadi. Havoning issiqligi 45 darajagacha ko'tariladi. Bu hududda issiq kunlar ko'p bo'lganligi sababli tabiiy yo'l bilan issiqdan saqlanish qiyin hududlar hisoblanadi.

Bir-biridan farq qiladigan bu qismlar uchun, albatta o'ziga xos tabiiy loyiha yaratilishi lozim. O'zbekistonning bir xil tuman va viloyatlarida er tez-tez, qattiq qimirlab turadi. Erning 9 balgacha qimirlashi esa qurilishda ancha-muncha loyihalarni cheklash va er qimirlashga qarshi usullarni ishlatishga olib keladi. Shuning uchun O'zbekiston hududida er qimirlashning seysmik xaritasi ishlab chiqilgan. Bu xaritada har bir tuman va viloyatning necha balli qismga kirishi ko'rsatilgan. O'zbekistonning tabiiy iqlim sharoitini, er qimirlashini hisobga olib turar uy-joy va jamoat binolarini loyihalash hamda qurish me'morlar oldiga ancha qiyinchiliklar tug'diradi, lekin me'morchilikda o'ziga xos an'analarni mujassamlantirishgaimkoniya yaratadi.

Ko'p qavatli turar joy(uy) xonadonlari:

Ko'p qavatli turar joylarga 6 qavatdan 9 qavatgacha bo'lgan uylar kiradi. O'rtacha qavatli turar joylardan farqi shuki, bu uylarda, albatta lift joylashtirilgan bo'lishi shart. Lift bo'lgani bilan zinapoya o'rniga o'tmaydi, zinapoya vertikal yo'nalishda muxim rol o'ynaydi.

Shuning uchun zinapoya qurilishiga katta ahamiyat berish kerak. YOng'indan, er qimirlash chidamligiga e'tibor berish kerak, ya'ni zinapoya mustaxkam va chidamli materialdan qilingan bo'lib, dimiqmaydigan zinapoya bo'lishi kerak. Zinapoya maydonidan uning ikki tomoniga chiqadigai ochiq yo'l bo'lishi kerak. Normativ bo'yicha zinapoya maydoni isitilishi shart emas, lekin qulaylik bo'lishi uchun iloji bo'lsa isitish kerak. Zinapoyalardan tashqari ko'p qavatli turar joylarda boshqa

chiqib ketish yo'llarini, ya'ni ikki qo'shni orasidagi balkonlar yoki ayvonlar orqali bir-biridan o'tadigan yo'lni xam e'tiborga olish kerak .

Ko'p qavatli turar joy binolari qurilishida xam xamma loyixa turkumlari ishlatiladi. 1-jadvalda ko'rsatilganidek, qo'llaniladigan bo'linmali, yo'lakli, yo'lakli-bo'linma va nuqtali /bir bo'linmali/ ko'p qavatli turar joy binolari qurilishi tikkali /bashenniy/ deb ataladi. Ayniqsa ko'p tavsiya etiladiganlari bo'linmali, /seksiyali/, yo'lakli turkumdir. Bu turkum universal bo'lib, ko'p xonali va kam xonali xonadonlarni to'liq echishga, iqtisodiy tomondan xam yutish mumkin. Ko'p qavatli uylarning uzunligi ko'p masofani egallashi bilan birga anchagina joyga o'z soyasi bilan xalaqit beradi, shuning uchun uzunligini kamaytirishga to'g'ri keladi. Bularni etiborga olsak, 1 ta bo'linmali uy ko'proq to'g'ri keladi.

Uylarning qavatlarini ko'payishi xonadonlarni tabiat manzaralari bilan bog'liqligini uzoqlashtirmoqda, shuning uchun bunday uylarda yozgi xonadonlarga katta ahamiyat berish kerak. Ularning maydonlarini ko'paytirib xar xil gullar bilan ko'kalamzorlashtirish kichik bog'chalar xosil qilish kerak, ikki balandlik ayvonlar, ya'ni ularni balandligi 2 qavat, o'z xovlisi bo'lishi mumkin. Ularni ko'kalamzorlashtirishning afzalligi shundan iboratki, xonadonni ko'chadan to'sib turadi. Yana xar xil chang va tovushlardan asrab turadi. Tekis tom ustidagi ochiq maydonlar umumiy maydonlarga aylanib qolishi mumkin, bundan tashqari shu uyda yashovchi kishilarning dam oladigan joyiga aylanadi.

Tekis tomonlarni ko'kalamzorlashtirish tomlarni yozda isib ketishdan saqlaydi va xonadonlarning xavosini ancha pasaytiradi. Ko'p qavatli uylarda kelajak dasturida ochiq qavatlar yoki umumiy foydalanish uchun xar xil maqsadni ko'zlab, uyning bir tarafini ochiq yozgi ayvonlar tarzida qoldirish ko'zda tutilmoqda.

Yuqorida ko'rsatilgan turkumdan tashqari koridorli va yo'lakli xonadonlar loyixasi xam qo'llaniladi. Bunda 2 qavatga bir xonadan

joylashtiriladi. Bir qavatga joylashgan koridorli xonadonlarga nisbatan bunday xonadonlarda elvizak masalasi oson echiladi, xamda tug`ridan - to`g`ri shamollatish xal bo`ladi, bulardan tashqari xonadonlar ikki tarafga qaragan bo`ladi. Bu bilan orientatsiya masalasi xam xal bo`ladi. Bu xildagi uylarning qurilishida xech qanday qarshilik yo`q. Koridorli uylarda xonadonlarni 3-qavatga joylashtirish mumkin, bunda iqtisodiy tomondan ancha yutish mumkin. Ammo bu turkum faqat ko`p xonali xonadonlar uchun qulaydir. Yo`lakli uylarda xonadonni 2-qavatga joylashtirish ancha yo`lakni qisqartirtirishga olib keladi.

O`zbekistonda ko`p qavatli uylarni qurish yaqinda boshlandi. Birinchi bo`lib Navoiy shaxrida 9 qavatli yo`lakli uy qurildi. Keyinchalik Toshkent va boshqa shaxarlarda xam qurila boshladi. Shaxardagi erlarni ayash natijasida Toshkent va boshqa katta shaxarlarda ko`p qavatli uylar qurilishi avj oldi.

Bular daxalarda kam qavatli uylar va o`rta qavatli uylar orasida joylashtiriladi. Ko`p qavatli va baland qavatli uylarning asosiy qurilmalari. Bu binolarni loyixasida asosiy talab: ishlatiladigan materiallarning og`irligi va qurilmalarni iloji boricha kamaytirishdan iborat. Bu ayniqsa zilzila tez-tez bo`ladigan joyda axamiatlidir. Shuning uchun ko`p qavatli uylarda sinch panelli qurilma, engillashtirilgan panellar ishlatiladi. Temir betonli yoki po`latdan sinch bo`lishi mumkin. Ustun va rigel orasi juda kengayib ketmasligi kerak, bu baland qavatli binolarda oraliq katta bo`lmasligi uchun qulaydir.

Kelajakda ko`p qavatli uylarni qurishda sinch xajmiy elementlaridan foydalanish ko`zda tutilyapti. Baland qavatli uylarda esa po`lat sinchli bo`lib, xajm elementi bilan to`ldiriladi. Bunday uylar o`z afzalligi bilan ajralib turadi, ya`ni qurilishi engillashadi. Zavodda tayyor elementlar keltirilib ish xam osonlashadi. Ularni xar xil usulda joylashtirish mumkin, buning oqibatida me`moriy ko`rinish ancha boyiydi. Oxirgi paytda

bunday uylarni Sirg'ali tumanidagi mavzelarda ko'plab uchratish mumkin. Xozirgi paytda ko'pgina uylar quyma temir-betondan qurilyapti. Bunday uylarda faqat to'g'ri shakl emas, balki boshqa xar-xil shakllarni xam ishlatish mumkin, bu esa me'moriy ko'rinishni boyitadi va bino juda katta zilzilaga bardosh bera oladi.

Arxitektura:

Menga urganch shahrida qurilishi mo'jallangan 9 qavatli turar joy binosini loyihalash topshirildi. Urganch shahrining A. Temur ko'chasida qurilish uchun yer maydoni tanladik.

Malumki bugungi kunga kelib O'zbekistonda ko'p va baland qavatli turar joy binolari qurilishi keng qo'llanila boshlandi. Bunga asosiy sabab yer tahchilligi va axolini uy joy bilan taminlash siyosatidir. Shundan kelib chiqib aytadigan bo'lsak bundan keyin shahar ichda va uning atrofida o'rta va kam qavatli turar joy binolarining qurilishi iqtisodiy va arxitekturaviy tamondan o'zini oqlamaydi. Shuning uchun men ko'pchilikning fikrini o'rganib bu muammoning yechimi sifatida o'z loihamni taklif qilaman.

Bosh reja:

Bosh reja bo'yicha 9 qavatli 70 xonadonli turar joy binosini loyihalashtirdik. Binolar yo'lga 45 burchak ostida joylashtirildi. Bosh rejada bolalar maydonchasi, avtostayanka va avtogaraj ko'zda tutildi. Qoidaga ko'ra avtogaraj xonadonlar sonining 30% dan kam bo'lmasligi kerak. Binoni joylashtirishda uning orientatsiyasiga e'tibor qilinib janubi-g'arbiy tomonga qarab loyihalandi. Turarjoylarni loyihalashtirishda binoning old ko'rinishini shahar arxitekturasining bugungi kundagi zamonaviy qiyofasi bilan bog'lashga katta e'tibor qaratildi.

Binoning umumiy xususiyatlari:

- Loyihalanayotgan bino 2-darajali binolar toifasiga kirib 50yil hizmat

ko'satishi ko'zda tutilgan.

- Bino joylashgan zona 7 balli sesmik aktiv zona hisoblanib, grunt sharoiti noqulayligi tufayli 1 bal qo'shilib 8 balli zona deb hisoblandi.
- Me'yoriy qor yuki 50kg/m²
- Shamol ta'sir qilishi bo'yicha 4-zonaga kirib 38kg/m² deb tanlandi.
- Fundamenti yaxlit temir beton.
- Devor kompleks konstruksiyalig'ishtdan terilgan.
- Orayopma va tomyopma ko'p kovakli yig'ma temirbeton plitadan iborat.
- Rama va peremichka yahlit temirbetondan iborat.

Arxitekturaviy va konstruktiv loihalash:

Ko'p qavatli turar joy binolari 6 qavatdan 9 qavatgacha bo'ladi shunga ko'ra mening loyiham ko'p qavatli turarjoy binolari toifasiga kiradi. Binoning joylashgan umumiy yer maydoni n 880m². Binoning umumiy balandligi 32,6m. Biz binoni zamon talabiga muvofiq 1-qavatni majmua qilib loyihaladikMajmua ichkarisi 2 xona, garderoab va savdo zalidan iborat. Xonalar ishchilar dam olish xonasi va omborxonadan iborat. Omborxonaga yuk tushirish maqsadida yon tomondan ham kirish eshigi qo'yilgan. Shu bilan birga binoning orqa tamoni markazidan yuqori qavatlarga chiqish eshigi ham loihalangan. Biz bu eshikdan zinapoya orqali honadonlarga chiqishimiz mumkin. Shu bilan birga me'yoriy qoidalarga muvofiq zinapoya yonida lift va ahlal tashlash shahtasi ham joylashtirilgan.

Qavatlar rejasiga ko'ra 1 qavatda 6 ta qolgan qavatlarda 8 tadan kvartira loihalangan.Qavatlar balandligi 3.3m bo'lib honalar balandligi 3m. Har bir kvartira 3,2 va 1 honali bo'lib tarkibiga: karidor, prixoja, 2ta yotoqxona, oshxona, mehmonxona, sanuzel, dush va balkonlar kiritildi

Loyiha 70 xonadonga mo'ljallangan ko'p qavatli turar joy binosi bo'lib uni Urganch shahri Amir Temur ko'chasi Hamkorbank ro'parasiga

joylashtiradigan bo'ldim. Men u binoni lentasimon usulda ishladim birinchi qavatida ikkita do'kon joylashgan do'kon binoning ikki yon qirrasida joylashgan bo'lib uni omborxonasam bor. Bino 9 qavatdan iborat bo'lib xar bir xonadan bir necha xonalardan iborat bir xonali ikki xonali va uch xonali xonadonlardan iborat. Umumiy uchta lift dan iborat bo'lib ikkitasi odam tashish uchun bittasi esa yuk tashish uchun mo'ljallangan. Tom qismi chartoq tipida qilindi. Kiraverishda asosiy ikkita kirish yo'lagi bo'lib ularni bittasida axlatni olib ketish uchun xizmat qiladigan keraverish xisoblanadi. Men binomni ochiq sariq ranga bo'yadim birinchi qavatli esa chiroyli ko'rinishi uchun alifan bilan bezak berdim, do'konlar yaxshi ko'rinib turishi uchun uni ko'p qismini oyna bilan qopladim. Binomni ortki tomonida mashinalar turishi uchun mashina joyi xam bor xamda yosh bolalarga qulaylik bo'lsin deb ularni o'ynash maydonchasi ham bor. Ko'p qavatli uylar (6-9 qavatli) umumiy foydalaniladigan zinapoyadan tashqari tik vertikal bog'lanishlari uchun liftlar qurilmasi ham bo'lishi kerak. Qurilish iqtisodiyoti nuqtai nazaridan qaralsa, uylar o'rta qavatli uylardan qimmatroqqa tushadi, ammo er sathida ko'proq aholini joylashtirish imkonini beradi. Shuning uchun bu xildagi uylar katta shaharlar uchun asosiy turar joy binolari hisoblanadi.

Loyiha grafik qismining tarkibi:

An'anviy grafikada bajariladigan loyihalar uchun:

- zonalarining xizmat qismi bilan ko'p qavatli turar joy kompleksining bosh rejasi, M 1:500;
- tashqi reqlamani ikkita tasvirlaydigan rangli fasadlar (super grafika bilan), M 1:200, 1:150;
- birinchi qavat va takrorlanadigan qavatlarining rejasi (tarxi), bunda

xonalarning eqsplyatsiyasi ham bajariladi, M 1:200, 1:150;

- Zinapoya joylashgan o`rni bo`yicha ko`ndalang qirgim, M 1:100,;

-perspektiva (aksonometrik).Bularning hammasi 80x90 o`lchamdagi 4 ta planshetlarda bajarilgan.

KONSTRUKTSIYA QISMI

Bitiruvchi:	G`affarov B.
Maslaxatchil:	Durdiyeva G.
Diplom loyixasi raxbari:	Boyjanov A.

Deraza proyomi ustki peremichka(bolador) konstruksiyasini xisoblash.

Binoning gisht devoridagi, $\ell_{cg} = 1,8m$ petlikdagi deraza proyomi yopmasi uchun yig`ma uchun yigma temir-beton boladorlarini xisoblab

konstruktsiyalansin. Devorning qalinligi 38 sm. Devor o`qidan devorgacha masofa  $V=5,8$  m. Binodagi yopma qalinligi 22 mm ko`p qavatli panellar.

Beton klassi $V=20$. Ishchi armaturali A – III klassli po`latdan. Montaj va ko`ndalang armaturalar klassi A-I. Rasm-1 da peremichkalarning umumiy ko`rinishi va qirqimi ko`rsatilgan.

YECHISH:

Xisobiy qarshiliklarni anikqlash: 2,3 jadval [A-I] dan $V = 20$ klassli betonning xisobiy qarshiliklarini aniqlaymiz.

$$R_b = 11,5 MPa = 1,15 kH / cm^2$$

$$R_{bt} = 0,9 MPa = 0,09 kH / cm^2$$

R_b va R_{bt} larni ish sharoiti koeffitsienti $\gamma_{Ti=0,85}$ xisobga olib aniqlaymiz.

$$R_b = 11,5 \cdot 0,85 = 9,775 MPa = 0,9775 kH / cm^2$$

$$R_{bt} = 0,9 \cdot 0,85 = 0,765 MPa = 0,0765 kH / cm^2$$

2,8 jadval [A-I] buyicha A-III klassli armaturaning xisobiy qarshiliklari.

$$R_s = 365 MPa = 36,5 kH / cm^2$$

$$R_{sw} = 290 MPa = 29 kH / cm^2$$

Ko`ndalang sterjenlar uchun armaturalar A-I klassli olinadi.

$$R_{sw} = 175 MPa = 17,5 kH / cm^2$$

2. Xisobiy sxema.

Peremichka brus shaklida bulib bir xil enlikdagi uchta ayrim elementdan iborat. Peremichkalarining ichki elementiga yopma paneli (devor)dan tushadigan nagruzkani kutaradi.

Elementlarning devorga kirib turishni kuyidagicha olamiz.

Ichki element uchun $a_e = 0,35m$

Qolgan elementlar uchun $a_c = 0,25m$

Peremichkaning xar bir elementi bir oralikli, erkin yotuvchi tekis yuklangan balkaday ishlaydi. Rasm.1.

Xisobiy uzunliklarni aniklash ichki element uchun:

$$\ell_p = \ell_{cs} + a_e = 1,8 + 0,35 = 2,15m$$

tashki element va urta elementlar uchun:

$$\ell_p = \ell_{cs} + a_c = 1,8 + 0,25 = 2,05m$$

3. Peremichkaning ichki elementini xisoblash mumkinligini xisobga olgan xolda devor terimlari nagruzkasini balandligi peremichkaning $\ell_{cs} = 1,0m$ olali giga teng kilib olinadi.

Qurilish davridagi moslamalar va materiallarni xisobga olgan xolda orayopmaga tushadigan vaktinchalik nagruzka orayopmaga tushadigan

vaktinchalik nagruzka $200\text{kG/m}^2=2\text{kN/sm}^2$ olindi.

Peremichkaning kesimi balandligini kuyidagi chegaralarda olamiz.

$$h = \left(\frac{1}{10} : \frac{1}{20}\right) \cdot \ell_p = \left(\frac{1}{10} : \frac{1}{20}\right) \cdot 2,15 = (0,215 \cdot 0,125)\text{m}$$

Elementning kesimi gisht razmerlarini e'tiborga olgan xolda kuyidagicha olinadi. $\ell \cdot h = 0,12 \cdot 0,22\text{m}$

Popom ichki elementga nagruzkalarni yi gish.

Nagruzkalar	Xisoblash KGS/m	Normal nagruzka kN/m	Ishonch koef. γ	Xisoblash nagruzka kN/m
Elementning o girligi	$0,12 \cdot 0,22 \cdot 2500=66$	0,66	1,1	0,73
Devor terimi o girligi	$\frac{18}{2} \cdot 0,38 \cdot 1800=410$	4,10	1,1	4,51
Orayopma paneli nagruzkalar	$275 \cdot \frac{58}{2}=798$	7,98	1,1	8,77
Doimiy lag.lar yi gindisi	1274	12,74	-	14,01
Vaktinchalik nagruzkalar	$200 \cdot \frac{58}{2}=580$	5,8	1,4	0,12
Umumiy nagruzkalar	ON=1854 Gn	ON-18,54 Gn	-	$q_n=22,13$
Yaxlitlab olinadi				$q=22,2$

Normal kesimlari buyicha mustaxkamligini xisoblash.

Eng katta eguvchi moment, tayanchlardagi kisman kesib biriktirishlarni xisobga olmay xisobiy nagruzkadan aniklanadi.

$$\mu = \frac{q_n \cdot \ell \cdot p^2}{8} = \frac{22,22,15^2}{8} = 12,83$$

Monumental yul kuyiladigan ish balandligi.

$$h_0 = \sqrt{\frac{M}{R_e \cdot \sigma \cdot A_{0\max}}} = \sqrt{\frac{1283}{0,977 \cdot 12 \cdot 0,42}} = \sqrt{\frac{12,83}{4,92}} = \sqrt{265,8} = 16,2\text{cm}$$

Kesimning balandligini $h=22$ sm enini esa $\ell=12$ sm kilib koldiramiz. Ish balandligini kuyidagicha olamiz.

$$h_0 = h - \frac{q}{2} - h_{3c} = 22 \frac{2}{2} + 2 = 19\text{cm} > 16,2\text{cm}$$

Koeffitsient

$$A_0 = \frac{M}{K_e \cdot \sigma \cdot h_0^2} = \frac{1283}{0,977 \cdot 12 \cdot 19^2} = \frac{1283}{4232} = 0,303 < A_{0\max} = 0,42$$

Jadval

2[A-I] $\eta = 0,812$ ni olamiz.

Chuziluvchi armaturalarning zaruriy kesimi

$$A_s = \frac{M}{R_p \cdot h_0 \cdot A_1} = \frac{1283}{36,5 \cdot 19 \cdot 0,812} = \frac{1283}{563,12} = 2,28\text{cm}^2$$

Ilova jadval 2[A-I] dan olamiz.

118A-III $A_s=2,545 \text{ sm}^2$

4. Kiya kesimlarning kundalang kuch ta'siriga mustaxkamligini xisoblash.

Eng katta kundalang kuch.

$$Q_{\max} = 23,87kH < 0,35R_g \cdot \sigma_{h_0} = 0,35 \cdot 0,977 \cdot 12 \cdot 29 = 78kH$$

Shart bajarildi.

$$Q_g = R_1 \cdot R_{h_t} \cdot \sigma \cdot h_0 = 0,6 \cdot 0,076 \cdot 12 \cdot 19 \cdot 10,4kH < Q_{\max} = 22,5kH$$

bulgan kundalang armaturalarni xisoblash kerak $d_1=16mm$ bulganda jadval buyicha payvandlash armaturalar diametri $D=6mm$ olindi. Pulat klassli A-I $A_{snc}=0,283 \text{ sm}^2$. Konstruktiv talablar buyicha prolyotning chetki choraklarda kundalang sterjenlar orali gini kuyidagicha olamiz.

$S=10sm < \frac{h}{2} = \frac{22}{2} = 11cm < 28cm$ yul kuyilgan maksimal kattalikning kichik

$$S = \frac{0,75 \cdot R_2 \cdot R_g \cdot \sigma \cdot h_0^2}{Q_{\max}} = \frac{0,75 \cdot 2 \cdot 0,075 \cdot 12 \cdot 19^2}{22,55} = \frac{493,9}{22,55} = 22cm$$

Xomutlarda elementning nagruzkasi 1sm uzunligiga tugri keladigan chegaraviy zurikish

$$q_{snc} = \frac{A_{snc} \cdot A_{snc} \cdot h}{S} = \frac{175 \cdot 0,283 \cdot 1}{10} = \frac{4,95}{10} = 0,495kH / cm$$

Xomut va beton kabul kiluvchi chegarviy kundalang kuch

$$Q_{snc} = 2\sqrt{R_2 \cdot R_{gt} \cdot \sigma \cdot q_{snc}} = 2\sqrt{0,076 \cdot 12 \cdot 11 \cdot 19^2 \cdot 0,495} = 25,5kN > 22,55kN$$

bulgani uchun kiya kesimlar buyicha mustaxkamlik ta'minlangan

$h < 300\text{mm}$ bulgan elementning prolyoti urta kismlarga xomutlarni kuymaslik mumkin. Lekin konstruktiv muloxaza buyicha urta $S=200\text{ mm}$ kadam bilan tayanch chetining kirib turish $\ell_0 = 220\text{mm}$ bu esa $10d_1 = 10 \times 18 = 180\text{ mm}$ dan kattadir. Element konstruktsiyasi 2-rasmda kursatilgan.

Peremichkaning tashki va urta elementini xisoblash

$\epsilon \cdot h = 0,12 \cdot 0,14\text{m}$ Gisht ulchamlariga moslash kerakligini xisobga olib kesimi kuyidagicha olinadi.

1 pogonali tashki va urta elementlarga nagruzkalarni yi gish.

Nagruzka turi	Xisoblash kPs/m	Norma napr. kN/m	Ishonchl koeff. φt	Xisoblash kN/m
Elementning uz ogirligi	$0.12 \times 0,14 \times 2500 = 42$	0,42	1,1	0,46
Devor terimi ogirligi	$\frac{1,8}{2} \cdot 0,38 \cdot 1800 = 410$	4.10	1,1	4,51
Umumiy nagruzka	452	$q \frac{H}{n} = 4,52$	-	$q_n = 497$

Eng katta eguvchi moment

$$\mu = \frac{q_n \cdot \ell^2}{8} = \frac{4,97 \cdot 2,05^2}{8} = 2,61 \text{ kH} / \text{m}$$

Elementning ish balandligi $h_0 \times 11\text{sm}$ deb ataladi.

Koeffitsient

$$A_0 = \frac{M}{R_{\sigma} \cdot \sigma \cdot h_0^2} = \frac{261}{0,977 \cdot 12 \cdot 19^2} = \frac{261}{1418} = 0,184 < A_{\max} = 0,42$$

3.4 Jadval. [A-I] dan $\eta = 0,897$ ni olamiz.

Ish armaturasining zaruriy kesimi.

$$A_s = \frac{M}{R_s \cdot h_0 \cdot h_1} = \frac{261}{36,5 \cdot 11 \cdot 0,897} = \frac{261}{360,2} = 0,725 \text{ cm}^2$$

ilova jadval 2[A-I] dan olamiz.

$$1D \ 10A\text{-III} \quad A_s = 0,785 \text{ sm}^2$$

Eng katta kundalang kuch.

$$Q_{\max} = \frac{q_n \cdot \ell_p}{2} = \frac{4,92 \cdot 2,05}{2} = 5,043 \text{ kH}$$

Kuyidagi sharnirni tekshiramiz.

$$Q_{\sigma} = 0,35 R_{\sigma} \cdot \sigma \cdot h_0 = 0,977 \cdot 12 \cdot 11 = 45 \text{ kH} > Q_{\max} = 477 \text{ kH}$$

$$Q_{\sigma=R_1 \cdot R_{gt} \cdot \sigma \cdot h_0} = 0,6 \cdot 0,076 \cdot 12 \cdot 11 = 6,0 \text{ kH} > 477 \text{ kH}$$

bulganda ularni kundalang sterjenlarni sxemasi talab kilinmaydi.

Lekin armatura karkasi kurish maksadida $S=200$ mm kadam bilan kundalang sterjenlarni kuyishni kuzda tutamiz.

**QURILISH JARAYONLARI
TEXNOLOGIYASI QISMI**

Qurilish - montaj ishlarini bajarish uchun ko'rsatmalar.

Bitiruv malakaviy ish mavzusi: «**Ko`p qavatli 70 xonadonli turar joy binosini loyihalash**» ob'ekti qurilishi jarayonida quyidagi ishlar amalga oshirilishini e'tiborga olgan holda, shu ishlarni bajarish texnologiyasi bo'yicha quyidagilarga amal qilish zarurdir:

Gruntlarning turlari, qazish qiyinligi va boshqa xususiyatlari

1. Gruntlarning turlari, qazish qiyinligi va boshqa xususiyatlari

Grunt – tuproq va tog' jinslarining umumiy nomi bo'lib, toshloq va bo'shoq xillarga bo'linadi. Toshloq gruntlarni otqindi (magmatik), metamorfik va cho'kindi tog' jinslari tashkil etadi. Bu jinslarning zarralari bir-biriga mahkam birikkan bo'ladi, yaxlit yoki darzli massiv holda yotadi. Bo'shoq gruntlar sementlashmagan tog' jinsi bo'laklaridan tashkil topgan. Zarralarning katta-kichikligiga qarab qumtoshli, lyossimon, gilsimon gruntlarga bo'linadi. Tarkibiga ko'ra gruntlar quyidagi turlarga ajraladi: Qumlar quruq holda sochiluvchan, zarrachalarning diametri 0,05 dan 2 mm gacha bo'lgan, o'zaro qovushmagan mayda tog' jinsi qum deyiladi. Tog' va tekislik yerlardan olingan qumlarning donalari qirrali, daryo qumining donalari esa yassi (yapaloq) shaklda bo'ladi. Shamol yengil uchirib ketadigan mayda zarrachali qumlar barxan va dyunali qumlar deyiladi. Qumlar o'zaro kam qovushoq, suvni yaxshi o'tkazadigan, kam siqiladigan, elastikligi yo'q bo'ladi, ho'llanganda yuqqa bo'lgan qarshiligi deyarli kamaymaydi, suvda oson yuviladi, qum ustida mashinaning yurishi ancha qiyin bo'ladi. Mayda tosh donalarining yirikligi 2 mm dan 40 mm gacha bo'lgan sochiluvchan dumaloq tog' jinsi qum-shag'al, diametri 40 mm dan 200 mm gacha bo'lgan tog' jinsi shag'al, diametri 200 mm va 200 dan katta bo'lgan tog' jinsi

harsang tosh deyiladi. Sochiluvchan qirrali o'lchamlari 20 mm dan 100 mm gacha bo'lgan parchalangan tog' jinslari chaqiq tosh deyiladi. Qum-shag'al, shag'al, xarsang va chaqiq toshlar aralashgan gruntning qazish qiyin bo'ladi. Gil. Tarkibida aluminiy oksidi (glinozom), kremniy oksidi (kremnozom), qum, ohak, temir oksidlari va kimyoviy bog'langan suvlarning eng mayda zarrachalari hamda 30% dan ortiq zarrachalarning diametri 0,005 mm dan kichik bo'lgan silikat gil deyiladi. Gil nam holatda juda qovushoq, zich, elastik va suv o'tkazmaydigan bo'ladi.

Lyoss (sog' tuproq) mayin, g'ovak, rangi qo'ng'ir malla yoki kulrang bo'lib, ayrim bo'lakchalar va naychasimon ko'rinishidagi ohaktosh zarrachalari aralash grunt-lyossning tarkibida 60% mayda kvars qumi, 10-20% ohak, 5-10% mayda tuproq, shuningdek bir oz temir va slyuda bo'ladi. Lyoss tarkibida yirik qum, shuningdek gil zarrachalari bo'lmaydi.

Qumoq. Tarkibida 10% dan 30% gacha gil zarrachalari bo'lgan grunt qumoq deyiladi. Gilga qaraganda qumoqda qum zarrachalari ko'proq, chang zarrachalari esa kamroq bo'ladi. Qumoqlar quruq holatida qovushoq, elastik, suvni o'zidan kam o'tkazuvchan, sekin quriyadigan va suvda kam yuviladigan bo'ladi. Qumloq. Tarkibida 3% dan 10% gacha gil zarrachalari bo'lgan grunt qumloq deyiladi. Qumloqda qum zarrachalari changsimon zarrachalarga nisbatan oshiq, ularning ichida diametri 0,25 mm dan 2 mm gacha bo'lgan donachalar ko'proq bo'ladi. Qumloqlarning elastikligi kam, u nam holatda turg'un bo'ladi. Qora tuproq-kulrang, qo'ng'ir, kashtan yoki deyarli qora rangdagi tuproq. Bu gruntlar mexanikaviy tarkibga ko'ra turlicha bo'lib, qumoq, qumli va changsimon tuproqqa ya'ni turadi. Gruntning hajmiy massasi, qovushoqligi, yumshoqliligi, suv o'tkazuvchanligi, suv singdiruvchanligi, namligi, qiyaliklarda tura olish qobiliyati, yopishqoqligi, qirqilish va kovlashdagi solishtirma qarshiligi uning qazilishi qiyinligini xarakterlovchi eng muhim fizikaviy va mexanikaviy xossalari hisoblanadi.

Yer ishlarini muvaffaqiyat bilan bajarish va tuproq ishlarini sifatli qilib qurish uchun har bir binokor ishlatiladigan gruntning xususiyatlarini yaxshi bilishi kerak.

Tabiiy holatdagi 1m^3 gruntning massasi gruntning hajmiy massasi deyiladi. Hajmiy massani bilgan holda gruntning ko'tarishi va tashishda sarflangan enyergiyani hisoblab topish mumkin. Gruntning qovushoqligi ayrim zarrachalarning o'zaro tortishishini buzish, ya'ni ularni bir-biridan ajratishi uchun kerak bo'lgan kuchning miqdori bilan xarakterlanadi. Qovushoqligi ortishi bilan gruntni qirqishdagi solishtirma bosimi ham ortadi. Ishlanganida grunt hajmini oshishi uning yumshalishi deyiladi. Tabiiy holda o'tgan grunt zich grunt deyiladi. Grunt ishlanganida yumshaydi va hajmi ortadi. Gruntning yumshatilgan holatidagi hajmining zich holatidagi hajmiga bo'lgan nisbati yumshalish koeffitsienti deyiladi. Ular dastlabki va qoldiqlarga bo'linadi. Gruntning suv o'tkaza olish qobiliyati esa uning suv o'tkazuvchanligi deyiladi. Namlik – grunt g'ovaklarini suv bilan to'yinganlik darajasini bildiradi.

$$W = \frac{D_H - D_K}{D_K} \cdot 100,$$

bunda D_H, D_K nam va quruq tuproq massasi.

Gruntning qiyalikda tura olish qobiliyati tabiiy qiyalik burchagi, ya'ni qiyalik sirti va gorizontal tekislik orasidagi burchak bilan xarakterlanadi. Qiyalikni nisbat belgisi

$$\frac{A}{H} = m$$

quyidagicha ifodalanadi:


qiyalik koeffitsientining qiymati gruntning mexanikaviy tarkibiga qarab qurilish me'yorlari va qonunlarida ko'rsatilgan.

